



**O'RUXUN OBIDALARI TILIDA QO'LLANGAN SHEVAGA OID SO'ZLARNING
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

Rustamov Mirjalol Azamat o'g'li
Samarqand davlat universiteti magistranti
+998(93) 660 44 42 mirjalolrustamov9696@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'rxun obidalari tilida qo'llangan shevaga oid so'zlarning lingvomadaniy xususiyatlari, Turk-run yozma an'anasining yana bir o'ziga xos jihat, Yozuv va imlodagi farqlar qadimgi turkiy tilning turli shevalari o'rtasidagi katta-kichik tafovutlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yenisey, dialektlarini, O'rxun, o'g'uz qarluq, qipchoq, dialektologik, turk-run.

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингвокультурологические особенности слов, относящихся к диалекту, употребленному в языке орхунских памятников, еще один уникальный аспект тюркоязычной письменной традиции, различия в написании и правописании между разными диалектами древнего Тюркский язык Информация об отличиях предоставлена.

Ключевые слова: Енисей, диалекты, орхунский, огузский, карлукский, кыпчакский, диалектологический, тюрко-рунский.

Annotation: In this article, the linguistic and cultural features of the words related to the dialect used in the language of the Orhun monuments, another unique aspect of the Turkic-run written tradition, the differences in writing and spelling between different dialects of the ancient Turkic language are major and minor. information about the differences is provided.

Key words: Yenisei, dialects, Orkhun, Oguz Qarluq, Kipchak, dialectological, Turko-Run.

KIRISH

Qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lgan lahja va shevalar muammosi turk-run xatidagi obidalar o'qilgan kezlardayoq bahslarga sabab bo'lgan. Ushbu manbalarni o'rgangan olimlar O'rxun va Yenisey bitiktoshlari tilida yaqqol farqlar borligiga e'tibor bergenlar. Bu holat mazkur bitiklar til va yozuv an'analari har xil tarixiy va madaniy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan turli qabilaviy ittifoqlarga tegishli ekani bilan tushuntirilgan. O'rxun va Yenisey bitiktoshlari tilidagi bunday tafovut avvalo singarmonizmning realizasiyasida hamda bir qator fonetik va leksik o'ziga xosliklarga ko'zga tashlanadi.

Keyinroq tilga olingan ushbu matnlar guruhlarining ichki dialektal bo'linishini aniqlashga bir qator urinishlar amalga oshirilgan. Dastlab Yenisey bitiktoshlari tilida O'rxun bitiktoshlarida uchramaydigan unli fonema – e borligi aniqlangan. Yenisey bitiktoshlarida bir qator so'zlar ikki xil usulda yozilishiga I.V. Kormushin e'tibor qaratadi: *äl* – *il* “el, davlat”; *älig* – *ilig* “elig, hukmdor, hokim”; *äki* – *iki* “iki”, *ält* – *ilt* “elt”, *bäš* – *biš* “besh”. Ammo olim bunda dialektal bo'linishni emas, balki ä va i o'rtasida turuvchi yangi unli fonemani yozuvda ifodalashda vujudga kelayotgan qiyinchiliklarni ko'radi.



I.A. Batmanov esa yozuvdagagi bunday ikki xillikni shevadagi farqlar bilan tushuntiradi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, Yenisey bitiktoshlariga mualliflik qilgan odamlar 2 xil shevada gapirgan, bu shevalarni farqlovchi asosiy xususiyat esa ñ va i unli fonemalarining o'rin almashib kelishi bo'lgan. Ammo I.A. Batmanov bu yo'nalishdagi mulohazalarini davom ettirmaydi, aniqlangan shevalarning boshqa farqlarini topishga hamda ularni tasniflashga urinmaydi.

ADABIYOTLAR VA METADALOGIYA

XXI asrda I.A. Batmanovning kuzatuvarlarini V. Ponaryadov davom ettirib, rivojlantiradi va Yenisey bitiktoshlari tilida aks etgan shevalar haqidagi ma'lumotlarni tizimga solib chiqadi. U Yenisey bitiktoshlari tilida A va B dialektlarini ajratib ko'rsatib, ularni tegishli ravishda Qirg'iz xoqonligida istiqomat qilgan qirqiz va chik-az qabilalariga nisbat beradi. Ushbu dialektlarda, I.A. Batmanov qayd qilgan fonetik o'tishdan tashqari, yana quyidagi farqlar kuzatiladi:

- I shaxs birlik olmoshi – män va bän;
- jo'nalish-yo'naltirish kelishigi ko'rsatkichi – -qa/-kä va -a/-ä;
- ravishdosh qo'shimchasi – -ip/-ip/-up va -ipan/-ipän;
- "elchi" ma'nosini anglatuvchi so'z – yalabač va älči;
- "ot" ma'nosini beruvchi leksema – at va yont .

Yuqorida tilga olingan tadqiqotlarga qaramay, umuman olganda, bugungi kunda turkologiyada O'rxun-Yenisey bitiktoshlarining tili turkiy qabilalarning jonli tilini aks ettirmay, turli shevalarning materiallari asosida tuzilgan va unifikasiya qilingan yozma adabiy me'yordir, degan qarash eng ko'p tarafdorlarga egadir. Bunda O'rxun va Yenisey bitiktoshlarining tilida ba'zi farqlar borligi inkor etilmaydi.

Turk-run yozma an'anasing yana bir o'ziga xos jihat shundan iboratki, ushbu an'ana Yenisey bo'yalarida va O'rxun vodiysida joylashgan asosiy yozma madaniyat markazlaridan qancha uzoqlashsa, bu markazlarda shakllangan alifbo tizimi va imlo qoidalari shuncha o'zgarib boradi. Buni ba'zi tadqiqotchilar olis viloyatlarda yozma an'anani saqlash qiyinligi bilan tushuntirsa, boshqalar turk-run xati o'sha hududlarda tarqalgan lahja va shevalarga moslashtirilib, o'zgartirilganiga bog'laydi. Bizningcha, turk-run alifbolarining taraqqiyotiga har ikki omil ham ta'sir ko'rsatgan.

O'rta Osiyo ham ana shunday uzoq viloyatlardan biri edi. Ushbu mintaqaga mansub turk-run xati namunalarini o'rganganimizda, ular yozilgan alifbo tizimlari bitiklar topilgan joyga qarab O'rxun-Yenisey xatlaridan u yoki bu darajada farq qilishi ko'zga tashlanadi. Masalan, Talas bitiktoshlari o'z mazmuni va paleografiyasiga ko'ra O'rxun-Yenisey obidalari juda yaqin turadi. G'arbroqdan – Farg'ona vodiysidan, Janubiy Qozog'istondan, Qashqadaryodan topilgan bitiklarda esa yozuv tizimi klassik turk-run xatidan sezilarli farq qiladi. Mintaqaning eng g'arbiy hududlariga taalluqli Achchiqtosh guruhi bitiklari esa mutlaqo boshqa yozma an'anani o'zida aks ettiradi va Janubiy Yenisey xatlari bilan o'xshashliklarni namoyon qiladi.

Yozuv va imlodagi farqlar qadimgi turkiy tilning turli shevalari o'rtasidagi katta-kichik tafovutlarni o'zida aks ettirishi mumkin. Bu taxminni tekshirish maqsadida bevosita O'rta Osiyo turk-run bitiklarining til materiallariga murojaat qilamiz.



Avvalgi bob va fasllarda O'rta Osiyo turk-run bitiklari tilini fonetik, leksik va grammatic nuqtai nazardan tahlil qilar ekanmiz, ba'zi jihatlar mintaqada tarqalgan qadimgi turkiy tilda ma'lum sheva farqlari borligiga ishora qilishini aytib o'tgan edik. Quyida ushbu kuzatuvlarimizni umumlashtirib, bu farqlar nimalarda aks etishiga hamda qanday shevalar mavjud bo'lganligidan dalolat berishiga oydinlik kiritishga urinamiz. Shuningdek, tahlilimiz davomida bitiklarda yozma adabiy me'yorning aks etishi masalasiga ham to'xtalib o'tamiz.

To'plangan material asosida o'tkazgan tahlilimiz O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlarda istiqomat qilgan turkiy qabilalarda turli shevalar bo'lganligini tasdiqlaydi. Yozuvlarning aksariyati arab istilosiga qadar bo'lgan davrga yoki arablar hukmronligining ilk bosqichiga oidligini inobatga olsak, turk-run matnlari mintaqada ilk o'rta asrlarda vujudga kelgan dialektologik holatni aks ettiradi. Keyingi davrda O'rta Osiyoda yashovchi qabilalarning ko'pchiligi yirik ittifoqlarga birlashadi va bu ittifoqlar negizida o'g'uz, qarluq, qipchoq singari yirik til guruhlari vujudga keladi. O'rta Osiyo turk-run bitiklari ana shu yirik til guruhlarining vujudga kelishidan oldingi yoki ular endi shakllana boshlagan davrdagi til vaziyatini aks ettiradi.

NATIJALAR

O'rta Osiyo turk-run bitiklari korpusining bunday tahlilga jalb qilish mumkin bo'lgan namunalari uncha ko'p emas. Talas guruhiga mansub yirik matnlar bu borada yaxshi manba bo'lib xizmat qila oladi, zero ular nisbatan aniq o'qilgan hamda til qurilishini nisbatan to'liq aks ettiradi. Shunga qaramay, ba'zi kichik matnlar ham borki, ularda diqqatga sazovor so'z va shakllar uchraydi. Shuningdek, bunday matnlar ba'zi fonetik o'ziga xosliklarni aks ettiradi. Eng muhimmi, Talas bitiktoshidan farqli ravishda, kichik hajmli bu bitiklarning mualliflari doim ham yozma adabiy me'yorga rioya etishga urinmaydilar va o'z shevalariga xos so'z va shakllarni bemalol ishlataveradilar.

Tahlilimizda quyidagi yodgorliklar matnlaridan foydalandik: Talas-1-2-3-4-5-6-8-10-11-12-13, Tovqarin-1-2, Shomirzatepa, Chachikey, Chiyimtosh-A-B; Ko'ksoy-2-3-4-5, jami 21 ta bitik.

O'tkazilgan tahlil natijasida tilning turli sathlarida aks etgan quyidagi belgilar aniqlandi.

Fonetik belgilar:

1) lab uyg'unligining aks etishi – aksariyat bitiklarda singarmonizmning ushbu ko'rinishi ko'zga tashlanmaydi, bir guruh yodgorliklarda O'rxun tipidagi kvadrat lab uyg'unligi hodisasi kuzatiladi: ayuñ yatǵu äbi "Oy uxdlaydigan uy";

2) ayrim so'zlarda old qator va orqa qator unlilari almashuvi: uluǵ – ǵulug "ulug"; lu – lü "ajdarho". Bu faqat imloga xos, talaffuzda aks etmagan holat ham bo'lishi mumkin;

unli fonemalarda:

3) äi almashuvi: äš – iš "esh, yo'ldosh": äš ältäš "esh, eldosh"; išinkä "eshiga". Yuqorida aytib o'tilganidek, bu fonetik hodisa Yenisey bitiktoshlari tiliga xosdir;

4) iþü almashuvi: böri – börü "bo'ri": qara böri "qora bo'ri"; kü yaruq aq börü "mashhur yorug" oq bo'ri". Bu fonetik hodisa lab uyg'unligining refleksi bo'lib, O'rxun bitiktoshlari tiliga xosdir;



undosh fonemalarda:

- 5) so‘z o‘rtasida jarangli va jarangsiz undosh fonemalarning o‘rin almashishi: apa – aba “yoshi ulug‘ qarindosh, aka, otaliq”; ökä – ögä “vazir, maslahatchi”;
- 6) so‘z oxirida q’o‘g‘almashuvi: uluq – uluq “ulug‘”;
- 7) šs almashuvi: alış-alış “soliq”; kümüs-kümüs “kumush”. Bu faqat imloga xos, talaffuzda aks etmagan holat ham bo‘lishi mumkin.

Leksik belgilar:

- 1) xotin: qatun – yutuz – kişi;
- 2) o‘g‘il, o‘g‘lon: oğlan – oğul;

Bu juftliklar dialektlar emas uslubiy farqni aks ettirishi mumkin. Ammo keyingi juftliklar Yenisey bitiktoshlari tilida ham dialektal hodisa deb talqin qilinadi:

- 3) ot: at – yont;
- 4) tiklanayotgan ba‘zi dialectal shakllar:
sanjır-sağır “күза”.

Morfologik belgilar:

- 1) O‘rin-payt-chiqish kelishigi ko‘rsatkichida jarangli portlovchi undosh fonemaning jarangsizlashishi: -nda/-ndä – -nta/-ntä: munda ilgäru “bu yerda ilgari”; otuzunta itip “o‘ttizada vafot etib”;
- 2) Jo‘nalish-yo‘naltirish kelishigi qo‘srimchasining xilma-xilligi: -qa/-ka – -a/-ä: išinkä “eshiga”; uyalarina “oila a‘zolaridan”;
- 3) I shaxs birlikdagi egalik qo‘srimchasining singarmonistik o‘zgarishi: -im/-im – -um/-üm: oğlim “o‘g‘lim”; özüm “o‘zim”;
- 4) qaratqich kelishigi qo‘srimchasining singarmonistik o‘zgarishi: -inj/-inj, -unj/-ünj: äsinij “azizi”; ayuj “Oyning”;

5) bu “bu” olmoshi kelishik qo‘srimchasi olganida so‘z boshida b>m almashuvi ro‘y beradi: bu>munda.

Shu tariqa, leksik dalillar kam bo‘lsa ham, fonetik va morfologik belgilar O‘rta Osiyo turk-run bitiklari tilida dialektal bo‘linish mavjud bo‘lganligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Leksikada o‘ziga xosliklar kamligi shevalar o‘zaro juda yaqinligi bilan tushuntiriladi. Shuningdek, siyosiy va madaniy umumiylilik leksikadagi tafovutlarni ham tez yo‘qqa chiqaradi.

Tahlil natijasida aniqlangan dialektal unsurlar O‘rta Osiyo turkiy qabilalarining shevalaridagi farqlarni aks ettiruvchi kamida 2 guruh belgilarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Har bir guruh belgilar ma‘lum bir shevaga xos bo‘lsa kerak. Bu borada ayniqsa lab uyg‘unligining realizasiyasi diqqatga sazovordir. Bu O‘rta Osiyo turk-run bitiklari tilini shevalarga ajratishdagi asosiy ko‘rsatkich, deyish mumkin. Shu asosda o‘rganilayotgan matnlarda 2 ta dialekt aks etganini taxmin qilish mumkin:

- A dialektda lab va tanglay uyg‘unligi to‘liq kuzatiladi. Bu jihatdan ushbu dialekt O‘rxun bitiktoshlari tiliga yaqin turadi;

Bundan tashqari, äşı almashuvini B dialektga xos xususiyat deb topish lozim, chunki, yuqorida aytiganidek, A dialekt fonetik belgilariga ko‘ra O‘rxun bitiktoshlari tiliga



yaqinroq turadi, unda esa, o'z navbatida, orqa qator ã barcha pozisiyalarda o'zgarishsiz saqlanadi.

1 va 2-morfologik belgilar shevalarga xos farq qatorida qadimgi turkiy tildagi kelishik tizimining har xil rivojlanish bosqichlarini ham aks ettirishi mumkin. V. Ponaryadov jo'nalish-yo'naltirish kelishigining turli ko'rsatkichlarini dialektal belgi sifatida ajratib ko'rsatsa ham , shaxsiy suhbatda bu shakllar o'rtasida vaqt tafovuti ham bor bo'lishi mumkinligini ta'kidlab o'tdi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo turk-run bitiklarida mahalliy turkiy qabilalarning shevalariga xos jihatlar ma'lum darajada aks etgan, deyish mumkin. Bu fakt shu jihatdan muhimki, O'rta Osiyo bitiklarining O'rxun-Yenisey obidalaridan farqlarini, shuningdek, mintaqada og'zaki til qay yo'sinda rivojlanib borganini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, O'rta Osiyo turk-run bitiklarida shevalarga xos unsurlar tartibli, izchil aks etadi, deb bo'lmaydi. Aksincha, kuzatuvlar natijasida matnlarning ko'pchiligi standartlashtirilgan tilda yozilgan, sheva unsurlari esa ularga tasodifan kirib qolgan, degan taassurot uyg'onadi. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, biz yuqorida turli shevalarga mansub deb hisoblagan belgilar bitta matn ichida ham qo'llanilishi mumkin. Shevalar aralashuvining eng qiziq namunasi Talas-13 dir:

Transkripsiya

1. Kičig kişim tul qaldi tursıqoğlum
2. Qumar Čur
3. Uyalarumda at ač oküz ač
4. Är atım Äšquli äsiz özüm

Tarjima

1. Kichik rafiqam tul qoldi. Voris o'g'lim
2. Qumar Chur
3. Qarindoshlarimda ot och, ho'kiz och
4. Er otim Eshquli. Esiz o'zim

Ushbu matnning 1-qatorida lab uyg'unligi izdan chiqayotgani aniq ko'rinish turgan holda, 3 va 4-qatorlarda bu qoida izchil realizasiya qilinayotgani ko'zga tashlanadi.

Bu holatni biz quyidagicha talqin qilamiz: O'rta Osiyo hududiga Turk xoqonligining markaziy viloyatlaridan kelgan turkiy qabilalar o'zları bilan o'sha hududlarda mavjud bo'lgan turk-run yozma an'anasi olib kelganlar. Bu an'ana allaqachon shakllanib, tizimlashtirilgan yozma me'yorga ega bo'lgan. Bu adabiy tilning o'z qonuniyatları, tayyor badiiy obrazlari, turli mazmundagi matnlarda qo'llanadigan formula gaplari bo'lgan, negaki undan asosan qabrtosh bitiklarini hamda aslzodalarning xotira yozuvlarini tayyorlashda foydalanilgan. Bundan tashqari, mazkur yozma me'yorda fonetik va morfologik jihatdan unifikasiyaga intilish kuchli bo'lgan.

Bugungi kunda turk-run bitiklarining eng yirik yodgorliklari – O'rxun va Yenisey bitiktoshlari ma'lum yozma an'anaga asoslanib yozilgani ko'pchilik olimlarda shubha uyg'otmaydi. Xuddi o'sha an'analing ayrim belgilarini Talas bitiktoshlarida ham ko'rishimiz mumkin. Mazkur bitiklarning mualliflari matnga badiiy bo'yoq bag'ishlashga uringanini, so'zlashuv tilidan farq qiluvchi adabiy me'yorga murojaat qilganini dalillovchi ba'zi belgilar:

- qaratqich kelishigi qo'shimchasi -niŋ/-niŋ ba'zi o'rinalarda tushirib qoldiriladi: Atasi ati Toğan oğlı ati Qara Čur "Otasingin oti To'g'on, o'g'lining oti Qora Chur"; Atasi ati Ötäg "Otasingin oti O'tag";



- o'tgan zamondagi muayyan vaqt kesimi aniqlik maylidagi fe'lning har xil qo'shimcha olgan ko'rinishlari bilan ifodalangan: qaldi "qoldi" – qalmış "qolmish". 2-shakl ilk o'rta asrlardayoq tilga badiiylik beruvchi vosita hisoblangan, deyishga asosimiz bor;
- inversiya: qılınçlıq İnal umaduq ökünçlüg "Tavrli Inol bo'la olmadı, o'kinchli";
- ichki qofiya – yuqoridagi misolda ko'zga tashlanadi;
- O'rxun va Yenisey bitiklarida uchraydigan ba'zi iboralar aynan takrorlanadi: ürün kümüş "kumush tortiqlar, sovg'a-salom".

Ohangdorlikka erishishga hamda buni matnning shaklida ifodalashga urinishni Talas-10 misolida ko'rishimiz mumkin:

Transkripsiya	Tarjima
1. Sü čur Ağuş atı	1. Qo'shin churi Ag'ush oti
2. Inal Ağuş atısı	2. Inal Ag'ushning nabirasi
3. Otuz oğlan sağdıčı	3. O'ttiz o'g'lon birodarligi
4. Yağı atı Qiyağan	4. Jangovar oti Qiyag'an
5. Atası atı Ötag	5. Otasining oti O'tag

Mazkur matnning har bir qatori tugal ohangdor bo'lakni tashkil etadi. Buni yozma matnda aks ettirish uchun har bir ohangdor bo'lak alohida satrga yozilgan – bu, aftidan, matnni o'qiydigan odam qanday ohangdan foydalanishi lozimligini bildirishi kerak edi. U davrdagi turkiy she'riyatda qofiya asosiy badiiy vosita bo'lмаган, shu bois ohangdorlikka, parchalarning jarangdorligiga va bir-birining maromini buzmasligiga e'tibor qaratilgan; balki aynan shu maromni saqlab qolish uchun ham oxirgi qatorda qaratqich kelishigi qo'shimchasi tushirib qoldirilgandir. Qolaversa, ba'zi o'rinnarda qofiya hosil qilishga urinishlar ham sezildi: ati "oti, ismi" – atisi "nabirasi".

Yuqorida aytib o'tilgan mulohazalardan kelib chiqib, O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlarda qadimgi turkiy tilning standartlashtirilgan yozma me'yori va an'anasi mavjud bo'lganligini, u O'rxun va Yenisey an'analari bilan bog'liq ekanligini aytish mumkin.

Markaziy Osiyo tarixning ma'lum bosqichida Turk xoqonligining chekka hududi sanalgani, shuningdek, xoqonlikning sharqiy viloyatlari xitoyliklar tomonidan bosib olinishi oqibatida ikki tomonlama madaniy aloqalar uzilib qolgan. Bundan tashqari, O'rta Osiyoda ayniqsa arab istilosidan keyingi yillarda yozma an'anani saqlashga, bu an'anani yaxshi biladigan mutaxassislarni yetishtirishga yetarli e'tibor qaratilmagan, deyishga asosimiz bor.

Sharqiy Turk xoqonligida qattiq yuzalarga matn tushiruvchi mutaxassislar – tabug'chilar asosan aslzodalarga va harbiylarga xizmat ko'rsatganlar. Ular yirik monumental bitiklarni tayyorlaganlar va shunga yarasha yaxshi daromad olganlar. Tabug'chilik kasbiga ehtiyoj baland bo'lgan, shunday ekan, turk-run xatini yaxshi biladigan mutaxassislarni yetishtirishga ham e'tibor qaratilgan. G'arbiy Turk xoqonligida esa monumental bitiktoshlar kam tayyorlangan. Bizga ma'lum bo'lgan Talas bitiktoshlari hashamati va hajmi jihatdan O'rxun va Yenisey bo'yalaridan topilgan obidalarga tenglasha olmaydi. Bizga qadar yetib kelgan bitiklarga qarab xulosa qiladigan bo'lsak, asosan qabrtoshlarga va qoyatoshlarga kichik hajmli esdalik bitiklari tushirilganini ko'ramiz. Bunday matnni tayyorlash, tabiiyki, O'rxundagi kabi yirik monumental bitiklarni tayyorlashga nisbatan kamroq mehnat va mahorat talab qilgan, bu mehnat evaziga kamroq



haq to'langan. Oqibatda sekin-astalik bilan tabug'chilik kasbiga ehtiyoj pasaya borgan, turk-run yozuvini yaxshi biladigan yangi mutaxassislar yetishtirilmay qo'ygan, bu xatda savodli yoza oladigan odamlar soni kamayib borgan. Shu omillar tufayli ba'zi bitiklarga shevaga xos so'zlar kirib qolgan: tabug'chilar matnlarda an'anaviy formula so'zlardan va badiiy ifodalardan foydalanishga urinsa-da, ba'zida imloviy xatolarga yo'l qo'yganlar yoki o'z shevasiga xos shakllarni ishlatib yuborganlar.

Turk-run yozuv an'anasining unutilib borishi va yangi vazifalarni bajara boshlashi, aftidan, O'rta Osiyo turkiy qabilalarida o'troqlashuv jarayoni ro'y berayotgani bilan ham bog'liq bo'lsa kerak. Turkiy qabilalar o'troqlashib, shaharlarda o'rnashib borishi asnosida turk-run xatining ijtimoiy va madaniy vazifalari o'zgarib borgan, bu xatni o'rta darajada biladigan odamlar soni ko'paygan. G'arbiy Turk xoqonligida hamda uning xarobalarida vujudga kelgan davlatlarda turk-run harflari nafaqat toshlarga, balki sopol parchalariga, yog'ochga, tangalarga, hatto qog'ozga bitilgan. Endi ushbu xatdan faqat xotira matnlarini tayyorlashda emas, maishiy yozuvlar va diplomatik hujjatlar tuzishda ham foydalanilgan. Turk-run xatidan boshqa ijtimoiy va madaniy maqsadlarda foydalanuvchi odamlar tabug'chilarning an'analarini davom ettirmaganlar. Ular uzoq yillar davomida an'anaviy imloni o'rganmagan, qolaversa, bu an'anani yaxshi biladigan va boshqalarga o'rgata oladigan mutaxassislar soni ham sekin-astalik bilan ozayib borgan.

Ushbu omillar va o'zgarishlar ta'sirida eski yozma an'analar bilan aloqalar uzilib, imlo qoidalari unutilib yoki o'zgarib borgan. Bizgacha yetib kelgan matnlarning mualliflari o'z saviya va mahoratlariga ko'ra yozganlar va ba'zida bu matnlarda o'z og'zaki tillariga xos ayrim unsurlarni beixtiyor aks ettirganlar. Bugungi tilda aytganda, ular grammatik va imloviy xatolarga yo'l qo'yganlar. Ammo aynan shu xatolar tufayli biz bugun O'rta Osiyo turkiy qabilalarining ilk o'rta asrlardagi og'zaki tili haqida ma'lum tasavvurga ega bo'la olamiz.

Aynan shu omillar tufayli O'rta Osiyo turk-run xati namunalarida ba'zida bitta matn ichida ikki xil shevaga xos belgilar ko'zga tashlanadi – bu matnlarning ayrim qismlari an'anaviy imlo qoidalari muvofiq yozilgan bo'lsa, boshqa qismlari "eshitilganiday", og'zaki nutqqa moslab bitilgan.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlilga asolanib, O'rta Osiyo turk-run bitiklarida shevalarning hamda yozma adabiy me'yorning aks etishi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoning turkiy qabilalari 2 ta o'zaro juda yaqin shevada gapirgan. Biz ushbu shevalarni shartli ravishda A va B dialektlar deb nomladik. Ularning asosiy farqi A dialektda lab uyg'unligining mavjudligida, B dialektda esa lab uyg'unligi yo'qolishi va faqat tanglay uyg'unligi saqlanib qolishidadir.

- O'rta Osiyoga Turk xoqonligining markaziy viloyatlaridan kelgan turkiy qabilalar u hududlardan turk-run xatiga bog'liq yozma an'anani, imlo qoidalarini olib kelganlar. Mazkur an'anaga xos jihatlar keyinchalik yoki parallel ravishda qadimgi turkiy tilning eng yirik yodgorliklarida – O'rxun va Yenisey bitiktoshlarida aks etgan. O'rxun, Yenisey va Talas bitiktoshlarida birday takrorlanadigan ba'zi iboralar, formula gaplar va poetik vositalar bundan dalolat beradi;



- O'rta Osiyo turk-run xatining O'rxun vodiysidagi va Yenisey bo'yalaridagi asosiy tarqalish hududlari bilan siyosiy va madaniy aloqalari uzilib qolgani, shuningdek, boshqa ba'zi sabablar tufayli ushbu yozma an'ana sekin-astalik bilan unutilib borgan. Buning natijasida matnlarga shevaga xos unsurlar kirib kela boshlagan;

- balki O'rta Osiyo turk-run bitiklari tilida mana shunday ikkilamchi dialektal aralashuv keyinchalik mintaqada O'rxun va Yenisey an'analaridan farq qiluvchi yangi yozma an'analarining shakllanishiga zamin yaratgandir. Zero, keyingi asrlarda aynan O'rta Osiyo mintaqasi turkiy yozma tilning rivojlanish markaziga aylangan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Кормушин И.В. Тюркские енисейские эпитафии. Грамматика. Текстология. – М.: Наука, 2008. – С. 173.
2. Батманов И.А. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности. – Фрунзе: Издательство Академии наук Киргизской ССР, 1959. – С. 32.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldag'i PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori: <https://lex.uz/docs/3117025>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydag'i PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori: <https://lex.uz/docs/3211987>